

KRIMINOGEN VAZIYATI OG'IR HUDUD: TUSHUNCHASI VA TAVSIFI

Baxtiyorov Ixtiyor Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

universiteti magistratura tinglovchisi

E-mail: ibaxtiyorov2007@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada kriminogen vaziyat tushunchasining mazmuni, shakllanish omillari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan og'ir hududlar bilan bog'liqligi nazariy va amaliy nuqtayi nazardan o'rganilgan. "Og'ir hudud" kategoriyasi kriminologiyada ijtimoiy beqarorlik, jamoaviy nazorat zaifligi va jinoyatchilik xavfi yuqori bo'lgan makon sifatida tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro va mahalliy tajriba asosida og'ir hududlarda yuzaga keladigan kriminogen holatlarning xususiyatlari ochib berilgan, mavjud muammolar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kriminogen vaziyat, og'ir hudud, kriminogen omillar, jinoyatchilik, jinoyat profilaktikasi, jinoyatga moyillik, ijtimoiy beqarorlik.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассмотрено содержание понятия криминогенной ситуации, факторы её формирования и их связь с социально-экономически неблагополучными территориями с теоретической и практической точек зрения. Категория «неблагополучный район» в криминологии анализируется как пространство с высокой степенью социальной нестабильности, ослабленным общественным контролем и повышенным риском преступности. На основе международного и местного опыта раскрыты особенности криминогенной обстановки, возникающей в таких районах, проведён анализ существующих проблем.

Ключевые слова: криминогенная ситуация, неблагополучный район, криминогенные факторы, преступность, профилактика преступлений, склонность к совершению преступлений, социальная нестабильность.

ABSTRACT. This article explores the concept of a criminogenic situation, the factors influencing its formation, and their connection to socio-economically disadvantaged areas from both theoretical and practical perspectives. In criminology, the category of “high-risk area” is analyzed as a space characterized by social instability, weak community control, and a high risk of criminal activity. The article outlines the features of criminogenic conditions emerging in such areas, based on international and local experience, and provides an analysis of the existing challenges.

Keywords: criminogenic situation, high-risk area, criminogenic factors, crime, crime prevention, propensity for crime, social instability.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy beqarorlik va jinoyatchilikning o‘tib borayotgani huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sotsiologlar, kriminologlar va siyosatchilar oldida muhim masalalarni qo‘yadi. Ayniqsa, kriminogen vaziyatlar va ularning aynan “og‘ir hududlar”da shakllanishi alohida ilmiy va amaliy e‘tiborni talab qiladi.

“Kriminogen vaziyati og‘ir hudud” tushunchasiga ta’rif berishdan oldin ushbu atamada ishlatilgan, ya’ni “kriminogen”, “vaziyat”, “og‘ir”, “hudud” so‘zlarning tub ma’nosiga ta’rif berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Kriminogen” so‘zi lotincha “*crimen*” – “jinoyat”, yunoncha “*genesis*” – “paydo bo‘lish” so‘zlari yig‘indisidan kelib chiqqan bo‘lib, jinoyatchilik paydo bo‘lishi yoki oshishiga sabab bo‘luvchi omillar, sharoitlar yoki jarayonlarni ifodalaydi. “Jinoyat” so‘ziga O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti-harakat¹” – deya ta’rif berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida: “Jinoyat - ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi²”.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://izoh.uz>

² O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz>

Kriminologik atamalar lug‘ati (glossariy) da “Kriminogen vaziyat – muayyan hududda jinoyatchilikning (uning ayrim turlari yoki ko‘rinishlari) saqlanib qolishi yoki o‘shishiga sabab bo‘luvchi omillar majmuasidir³” – deb ko‘rsatilgan. E.Y.Chuklina o‘z tadqiqotlarida Kriminogen vaziyatga jinoyat sodir bo‘lishi uchun qulay sharoitlar yig‘indisi, jinoyatchilikka olib keluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar majmui⁴ sifatida ta’rif bergan. Kriminogen omil – jinoyatchilikning (uning alohida turi yoki shakli) saqlanib qolishi yoki kuchayishiga turtki beruvchi hodisa yoki jarayon⁵.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “vaziyat” so‘ziga bir qator ta’rif berilgan bo‘lib, mavzuga aloqador ta’rif esa “vaziyat - jamiyatdagi, hayotdagi sharoit, holat⁶” hisoblanadi. Shuningdek, “og‘ir - muayyan me‘yori buzilgan, me‘yorga, talabga javob bermaydigan⁷” - deya ko‘rsatilgan izoh mavzuning mazmunini tushunishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, “hudud - ma’lum chek-chegarasiga ega bo‘lgan, shunday chegara bilan o‘ralgan (ajralgan) yer; ma’lum davlat, viloyat va shu kabilarga tegishli bo‘lgan yer, maydon⁸” – ekanligi O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida⁹”gi PF-158-son Farmonining ustuvor maqsadlariga erishish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi

³ Словарь криминологических терминов (гlossарий). <https://moodle.kstu.ru>

⁴ Э.Ю. Чуклина. КРИМИНОГЕННАЯ СИТУАЦИЯ КАК ОБЪЕКТ УГОЛОВНО-ПРАВОВОГО И КРИМИНОЛОГИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ. <https://cyberleninka.ru>

⁵ Словарь криминологических терминов (гlossарий). <https://moodle.kstu.ru>

⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://izoh.uz>

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://izoh.uz>

⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://izoh.uz>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni. 11.09.2023-yil. <https://lex.uz>

to'g'risida¹⁰gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi¹¹ bilan belgilangan mas'ul davlat organlari va tashkilotlarining respublika mahallalarida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini 2025-yilda sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida "Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish" ustuvor vazifa etib belgilanib, 2024-yilda jinoyat sodir etilgan har bir mahallada kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilishning mahallalar kesimida choraklik manzilli chora-tadbirlarini belgilagan holda mahalla - tuman - viloyat darajasida uning ijrosi uchun bevosita mas'ul rahbarlarni biriktirish va aniq sohaviy javobgarlikni yuklash, kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida joylarga chiqqan holda maqsadli o'rganishlarni o'tkazish orqali huquqbuzarliklarga sabab bo'layotgan asl omillarni aniqlash va barham berish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish, mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda "mahalla yettiligi" har bir vakilining aniq mas'uliyatini belgilash, ushbu toifadagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga yangicha ish uslublarini tatbiq qilish, aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib boorish, mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish, mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha har bir mas'ul idora va muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari yuzasidan qat'iy so'rov tizimini yo'lga

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida¹⁰gi qonuni. 14.05.2014-yil. <https://lex.uz>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmoni. 29.11.2021-yil. <https://lex.uz>

qo'yish hamda ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta'sir choralarini ko'rib borish. vazifasi yuklatildi¹².

Kriminogen vaziyatga ta'sir qiluvchi omillarga to'xtaladigan bo'lsak, ularni ketma-ket sanab o'tishimiz lozim:

-ijtimoiy omillar: kambag'allik, ta'lim darajasining pastligi, oilaviy buzilishlar, ishsizlik.

-iqtisodiy omillar: daromadlar notengligi, iqtisodiy qashshoqlik.

-psixologik omillar: shaxsiy muammolar, ruhiy salomatlik buzilishlari.

-madaniy omillar: jinoyatchilikni targ'ib qiluvchi muhit, noto'g'ri qadriyatlar.

-ekologik omillar: aholi zichligi, shaharsozlikdagi muammolar.

-huquqiy omillar: qonunlarning zaifligi, huquqni muhofaza qilish tizimidagi kamchiliklar.

“Og'ir hudud” – bu jinoyatchilikka zamin yaratuvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ega bo'lgan geografik makondir. Bu hududlarda ishsizlik darajasi yuqori, aholi zichligi haddan tashqari yuqori, ijtimoiy institutlar zaif, ta'lim va salomatlik tizimi past darajada, davlat nazorati sust, huquqiy savodxonlik yetishmaydi.

Kriminogen omillar og'ir hududda qanday namoyon bo'ladi? Barqaror kriminogenlik – jinoyatga turtki beruvchi omillar muntazam mavjud bo'ladi (masalan, kambag'allik, ishsizlik); qulay imkoniyatlar – jinoyat uchun zarur sharoitlar doimiy mavjud, ijtimoiy stress – ijtimoiy tengsizlik kuchli bo'lsa, jinoyatchilik xavfi ortadi, jamoatchilik nazoratining zaifligi – mahalliy jamoalarning jinoyatga qarshi ijtimoiy mexanizmlari ishlamaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha olib borilgan tahlillarda, og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat mavjud bo'lgan hududlarda jinoyatlar soni yuqori ekanligi qayd etilgan. Farg'ona vodiysida olib borilgan tadqiqotda, jinoyatlarning 68% i jamoatchilik nazorati sust bo'lgan, migratsiya yuqori bo'lgan hududlarda qayd etilgan.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-1-son qarori.03.01.2025-yil. <https://lex.uz>

Bundan tashqari, O'lchovning subyektivligi – kriminogen vaziyatni baholashning umumiy mezonlari yo'q. shuningdek, rasmiy statistikadagi tafovutlar – ayrim jinoyatlar yashirin bo'lishi mumkinligi (latent jinoyatchilik), ilmiy tadqiqotlar yetishmasligi – ayniqsa, mahalliy sharoitda, huquqiy va ijtimoiy siyosatning samarasizligi – jinoyat profilaktikasining to'g'ri tashkil etilmaganligi, kadrlar salohiyati pastligi – hududlarda yetarli malakali kadrlarning yetishmasligi kabi omillarni ham sabab va sharoitlar sifatida baholash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori 5-ilovasida Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha manzilli choralar konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, unda mahallalardagi kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan asosiy omillar sanab o'tilgan:

-“mahalla yettiligi”ning ijtimoiy profilaktika obyektlari va alohida toifadagi shaxslar (huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli bor shaxslar, ichki ishlar organlari hisobida turuvchi shaxslar) bilan olib borayotgan profilaktik tadbirlari natijadorligining pastligi;

-“mahalla yettiligi” vakillarining ijtimoiy profilaktikaga oid vazifalarni bajarish uchun bilimi, tajribasi va mahorati yetarli emasligi, profilaktika inspektorlarining xizmat yuklamasining yuqoriligi;

-“mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil qilish, boshqarish va muvofiqlashtirishdagi tizimli muammolar, kadrlar salohiyatining pastligi va kadrlar qo'nimsizligi;

-mahallada ishsizlik va kambag'allik darajasi yuqoriligi, bu borada tizimli ishlar talab darajasida tashkil etilmaganligi;

-mahalladagi jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki qo'riqlovi darajasining pastligi;

-mahallalar hududidagi davlat va nodavlat idora va tashkilotlar, savdo va bozor majmualari atrofida, shuningdek, jamoat joylari va aholi gavjum joylarda huquq-tartibot tizimining kuch va vositalarining yetarli emasligi;

-mahallalarda atrof-muhitni loyihalashtirish orqali jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar tatbiq etilmaganligi, "namunaviy xavfsiz ko'cha" va "namunaviy xavfsiz yo'lak"lar turli yondashuvlar asosida tashkil etilayotganligi;

-yirik shahar markazlaridagi ichki migratsiya jarayonlari to'liq nazoratga olinmaganligi hamda tuman (shahar) markazlaridagi bozor atrofidagi noqonuniy savdo rastalari va avtoturargohlarni tartibga solish choralari ko'rilmayotganligi;

-mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash va uning barvaqt oldini olish chora-tadbirlari ilmiy-amaliy yondashuv asosida yetarli darajada tashkil etilmagani;

-aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirish va tarbiyalashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot tadbirlarining ta'sirchan emasligi kabi omillar keltirilgan.

Mazkur omillarni bartaraf etish yuzasidan mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash va xavfsiz muhitni yaratish borasidagi faoliyatning ustuvor yo'nalishlari belgilangan:

-mahallalarda huquq-tartibot organlari tomonidan kuch va vositalarni taqsimlash, boshqarish (muvofiqlashtirish)ning yangi tizimini joriy etish;

-mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi ta'sirchanligi va natijadorligini oshirish borasida manzilli tadbirlarni uyg'unlikda amalga oshirish;

-alohida toifadagi shaxslar (voyaga yetmaganlar, yoshlar, ayollar, ishsizlar, muqaddam sudlanganlar, probatsiya hisobida turganlar va boshqalar) bilan manzilli, ta'sirchan ishlarni tizimli tashkil qilish;

-mahallalarda jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkini qo'riqlash qamrovini izchil oshirib borish;

-innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, CPTED (Crime Prevention Through Environmental Design — atrof-muhitni loyihalash orqali jinoyatlarning oldini olish) konsepsiyasi asosida mahallalarda "namunali xavfsiz ko'cha" va "namunali xavfsiz uy" loyihalarini tashkil etish;

-mahallalarda aholining huquqiy ongini oshirish, sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, huquqbuzarliklarga murosasizlik muhitini yaratishda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish;

-mahalladagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning asl omillarini tizimli ravishda ilmiy yondashgan holda ta'lim muassasalari tomonidan o'rganib borish.

Xulosa

Kriminogen vaziyat va og'ir hudud tushunchalari zamonaviy kriminologiyada dolzarb ilmiy kategoriyalardir. Ular jinoyatchilikni sababiy emas, balki tizimli nuqtai nazardan tushunishga imkon beradi. Og'ir hududlarda jinoyatchilik nafaqat shaxsiy qaror, balki ijtimoiy-muhitij majburiyat sifatida yuzaga chiqadi. Shu bois bu kabi hududlarda kompleks, strategik va hamkorlikka asoslangan yondashuvlar zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"¹gi qonuni. 14.05.2014-yil. <https://lex.uz>
- 2.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz>
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni. 11.09.2023-yil. <https://lex.uz>
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmoni. 29.11.2021-yil. <https://lex.uz>
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori.03.01.2025-yil. <https://lex.uz>
- 6.Э.Ю. Чуклина. КРИМИНОГЕННАЯ СИТУАЦИЯ КАК ОБЪЕКТ УГОЛОВНО-ПРАВОВОГО И КРИМИНОЛОГИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ. <https://cyberleninka.ru>
- 7.O'zbek tilining izohli lug'ati. <https://izoh.uz>
- 8.Словарь криминологических терминов (глоссарий). <https://moodle.kstu.ru>